

**Surxondaryo viloyati
delegatsiyasining Xitoyga tashrifi
Xebey provinsiyasida davom etdi.
Delegatsiyamiz dastlab,
Shiszyachjuan shahrida ikki tomon
rasmiylari hamda 200 ga yaqin
ishbilarmon doira vakillari ishtirokida
tashkil etilgan biznes forumda
qatnashdi.**

Forumda ikki tomon rasmiylari, yirik kompaniyalar vakillari soʻzga chiqib, hududlarning savdo-iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, ijtimoiy madaniy salohiyati toʻgʻrisida taqdimot qildi. Xususan, viloyatimiz rahbari Ulugʻbek Qosimov oʻz soʻzida vohamizning mavjud imkoniyatlari bilan tanishtirib, Xitoy kompaniyalari bilan istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik qilishga tayyor ekanligini taʼkidladi.

Shuningdek, forum doirasida Surxondaryo va Xebey tadbirkorlari, ishbilarmon doira vakillari oʻrtasida tor doiradagi muzokalar, turli loyihalar yuzasidan muhokama oʻtkazildi. Yakunda tomonlar uchun manfaatli va istiqbolli kelishuvlarga erishildi.